

**URGANCH DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.01/2025.27.12.Ped.12.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

NIYOZMATOV ANVAR BAHODIROVICH

**O‘ZBEK XALQ O‘YINLARI ASOSIDA O‘QUVCHILARNI MA’NAVIY
TARBIYALASHNING PEDAGOGIK OMILLARI
(Xorazm vohasi misolida)**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch - 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии(PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Niyozmatov Anvar Bahodirovich

О‘zbek xalq o‘yinlari asosida o‘quvchilarni ma’naviy tarbiyalashning pedagogik omillari (Xorazm vohasi misolida).....5

Ниёзметов Анвар Баходирович

Система формирования позитивного мировоззрения у учащихся с помощью педагогических учений восточных мыслителей (На примере Хорезмского оазиса).....25

Niyozmatov Anvar Bahodirovich

Pedagogical factors of spiritual education of students based on Uzbek folk games (Using the example of the Khorezm oasis)49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....54

**URGANCH DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.01/2025.27.12.Ped.12.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

NIYOZMATOV ANVAR BAHODIROVICH

**O‘ZBEK XALQ O‘YINLARI ASOSIDA O‘QUVCHILARNI MA’NAVIY
TARBIYALASHNING PEDAGOGIK OMILLARI
(Xorazm vohasi misolida)**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch – 2026

Pedagogika bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/Ped3833 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.urdpi.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sobirova Marhabo Abduganiyevna
falsafa fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Nafasov Doniyor Shernafasovich
pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent

Muxsiyeva Aziza Shamsitdinovna
pedagogika fanlari doktori
(DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya ishi himoyasi Urganch davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.01/2025.27.12.Ped.12.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "27" mart soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 220100, Urganch shahri, Gurlan ko'chasi 1-A uy. Tel.: (99862) 229-37-87; faks: (99862) 229-37-87; e-mail: study_info@urspi.uz.

Dissertatsiya matni bilan Urganch davlat pedagogika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 1 - raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 220100, Urganch shahri, Gurlan ko'chasi 1-A uy.) Tel.: (99862) 229-37-87; faks: (99862) 229-37-87. e-mail: arm@urspi.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "13" mart kuni tarqatildi.

(2026-yil "13" mart dagi 2 - raqamli reestr bayonnomasi).



F.R.Madraximova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, p.f.d. (DSc),
professor

T.T.Absalamov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, p.f.d.
(PhD), dotsent

E.I.Ro'ziyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi, p.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonning rivojlangan davlatlari globallashuv sharoitida ma'naviy-madaniy taraqqiyot yo'lida o'z madaniy merosi, milliy va axloqiy qadriyatlarini asrab avaylashga alohida e'tibor qaratib kelmoqda, bu o'z navbatida ta'lim-tarbiyaviy jarayonga innovatsion yondashuv va zamonaviy ta'lim texnologiyalarini faol joriy qilish bilan bevosita bog'liq. Ayniqsa, maktab yoshidagi bolalar tarbiyasiga oid hozirgi jahon tajribasida, jumladan, o'quvchilarni keng qamrovli: ham aqliy, ham ma'naviy, ham ijtimoiy-siyosiy, ham jismoniy tarbiyalash jarayonlarida o'quvchi yoshlarning jismoniy yetukligi bilan bir qatorda dunyoqarashi, tafakkuri, intellektual salohiyatini rivojlantirishga ko'mak beruvchi xalq milliy o'yinlarini qo'llash zamon talabiga aylanib bormoqda.

Dunyoda ta'limni insonparvarlashtirish, keksa va yosh avlod vakillari o'rtasida axloqiylik tamoyillariga asoslangan vorisiylik munosabatlarini yo'lga qo'yish, dunyo kelajagini ta'min etuvchi yosh avlodni shu tamoyillar asosida tarbiyalashda xalq milliy o'yinlaridan unumli foydalanishning ijtimoiy-ma'naviy va axloqiy mexanizmlarini ta'lim-tarbiya jarayonlariga tatbiq etish dolzarb ilmiy muammolardan biriga aylanib bormoqda. Shu jihatdan olganda tobora jadallashib borayotgan global o'zgarishlar odamlar hayotining turli sohalariga sezilarli ta'sir ko'rsatayotgan bir davrda ta'lim-tarbiyaning xalq turmush tarzi, an'analari, urf-odatlarini bilan bog'liq samarali usullarini chuqur o'rganish, ularni amaliyotga joriy etish bilan bog'liq ilmiy farazlarni tekshirish, bu boradagi mavjud muammolarni o'rganish, tarbiyaning etnopedagogik omillarga asoslangan ma'naviy strategiyasini belgilab olish, o'quvchilarning yoshi hamda ruhiy-fiziologik va intellektual jihatlarini nazarda tutgan holda maktab ta'limi jarayonida xalq milliy o'yinlaridan foydalanishning samarali mexanizmlarini aniqlash va ularni takomillashtirish muhimligini ko'rsatmoqda.

Yangilanayotgan O'zbekistonda keyingi yillarda o'zbek xalqining asrlar davomida yaratgan, avlodlardan avlodga o'tib kelayotgan ilmiy-ijodiy merosini to'plash, o'rganish, bu boy xazinalar asosida o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy boy, axloqiy pok, jismoniy barkamol qilib tarbiyalash, aholi, ayniqsa yoshlar o'rtasida "milliy sport turlari va xalq o'yinlari etnosport"ni targ'ib qilish va ommalashtirish, bolalar va o'smirlarni ularga keng jalb qilish"ning huquqiy bazasi mustahkamlanmoqda. "Yoshlarning madaniyatini rivojlantirish, ularda sog'lom turmush tarziga rioya etish, inson huquqlari, gender tengligi, tinchlikparvarlik va millatlararo totuvlik, vijdon erkinligi, barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlarini va an'analarni hurmat qilish kabi umuminsoniy qadriyatlar bilan birga milliy-axloqiy qadriyatlarni kamol toptirish, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy faollik, mustahkam fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish"¹ masalalari ta'lim tizimlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar ta'sirchanligini oshirishning ustuvor yo'nalishlarini o'zida aks ettiradi. Bu huquqiy asoslarda "yoshlarni etnosport turlariga keng jalb etish, ular o'rtasida musobaqalarni ommalashtirish", "ta'lim muassasalarida milliy sport turlari va xalq

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" to'g'risidagi Farmoni

o'yinlari bo'yicha musobaqalarning muntazam ravishda o'tkazilishini tashkil etish"² bilan bog'liq muhim maqsad va vazifalar ko'zda tutilganki, bu o'z o'rnida umumta'lim maktablari o'quvchi yoshlarida xalqning turli milliy o'yinlariga qiziqishni oshirish, sinfda va sinfdan tashqarida o'quvchilar bilan tashkil etiladigan mashg'ulotlarda xalq milliy o'yinlaridan keng foydalanish, uning pedagogik va psixologik xususiyatlari hamda didaktik shart-sharoitlarini aniqlash, shu orqali o'quvchi yoshlarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish – bugungi kunda pedagogik ta'limning dolzarb muammolaridan biri ekanligini ko'rsatib turibdi. Shuningdek, UNESCO an'anaviy sport va o'yinlarni barcha xalq va millatlar uchun madaniy merosining ajralmas qismi sifatida saqlash va targ'ib qilish zarurligini tan oladi. Negaki xalq o'yinlari – har bir jamoaning boy madaniy merosini o'zida aks ettiruvchi, jamiyatning ijtimoiy birligini va milliy qadriyatlarini mustahkamlashda muhim o'ringa ega bo'lgan faoliyat turlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Amalga oshirilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bugungi rivojlangan raqamli hayot tarzida xalq o'yinlarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish, o'quvchilarda sog'lom turmush tarzi va jismoniy faollik bilan birga adolat, hamkorlik, hurmat kabi ijobiy xarakterga ega bo'lgan ijtimoiy ko'nikmalarni ham shakllantiradi. Masalan, xalq o'yinlari amaliyotda qo'llashning o'quvchilarda hamkorlik, ijtimoiy birgalik va mas'uliyatni rivojlantirishi mumkinligi haqida xalqaro tadqiqotlar mavjud. Mazkur holat, o'zbek xalqining milliy o'yinlarini ta'lim-tarbiya jarayoniga integratsiya qilishning milliy pedagogik yondashuvdan tashqari, global pedagogik tendensiyalarga ham mos ekanligini ko'rsatadi. Shuning uchun O'zbekiston ta'lim-tarbiya tizimida o'zbek xalq milliy o'yinlarini pedagogik amaliyotda doimiy qo'llash - nafaqat milliy ma'naviyatni o'stirish, balki umumiy pedagogik qiymatni yanada rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali va zaruriy vosita sifatida qaralmoqda. Bu borada umumta'lim maktablari ta'lim va tarbiya tizimiga an'anaviy milliy etnopedagogik omillarni tatbiq qilish, ularni axborot kommunikativ texnologiyalarga asoslangan audio-vizual ta'lim hamda ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'qitishning zamonaviy usul va metodlari bilan integratsiyalash, tarbiyaning etnopedagogik omillarga asoslangan usullari orqali o'quvchi yoshlarda o'zining taqdirini ona Vatani, el, ulus, xalqi taqdiri bilan bog'lash, o'zini va o'zgalarni, ota-ona va yaqinlarni, umuman, o'zidan katta barchani hurmat qilish kabi fazilatlarni rivojlantirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli, 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli, 2022-yil 11-maydagi PF-134-son "2022-2026 - yillarga maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-sonli, 2022-yil 11-maydagi "Maktabgacha va maktab ta'limini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi PQ-241-sonli, 2022-yil 25-maydagi "Etnosport turlarini ommalashtirish

² Etnosport turlarini ommalashtirish va rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-maydagi PQ-259-son qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.05.2022-y., 07/22/259/0453-son.

va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-259-sonli qarorlari va tadqiqot mavzusiga taalluqli boshqa shu kabi huquqiy-me'yoriy asoslarda ko'rsatilgan vazifalar ijrosini ta'minlashda mazkur tadqiqot ishi muayyan ma'noda xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot ishi Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbek xalq o'yinlari asosida o'quvchilarni ma'naviy tarbiyalashning pedagogik omillarini ilmiy tahlil va tadqiq etish darajasini Respublikamizda O.Safarov, S.Avezov, G.Mardonova, R.Yo'ldosheva, U.Qoraboyev, Sh.Galiyev, S.Yo'ldoshev, Z.Jumaniyazova, M.Rahmonova, J.Qobilniyozov o'yinlar, shu jumladan, Xorazm viloyati hududiga oid xalq o'yinlarining paydo bo'lishi, ularning tarixiy ildizlari, tabiati, mavzulari, syujet tizimi, ko'p vazifadorligi, obrazlar tizimi, kompozitsion tarkibi, tarixiy ildizlari va kompozitsion asoslari borasida tadqiqotlar olib borgan mamlakatimiz olimlarining ishlarini kiritish mumkin.

Mustaqil Davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari olimlarining G.Volkov, A.P. Usova, D.B. Elkonin, M.A. Itina, L.V.Bileyeva, V.M. Grigoryev, A.E. Izmaylov, D.R.Sharafutdinov, Ye.B. Abatayev, A.A. Asarbayerov, M.Lutfulloyev kabi bir qator tadqiqot ishlarini kiritish mumkin. Ushbu tadqiqot ishlarida xalq o'yinlarining shakllanish tarixi, rivoji va tarbiyaviy jihatlari tahlil qilingan.

Xorijlik tadqiqotchilar J.Amades, R.Caillois, U.Castro, J.Concepcion, A.Cortizas, J.Etxebeste, A.Casey, P.A.Hastie kabi Yevropa mamlakatlari olimlarining tadqiqotlarini kiritish mumkin. Ular tomonidan ham xalq o'yinlari, ularning mohiyati va ahamiyati ochib berishga oid salmoqli ishlar qilinganligini qayd etib o'tish maqsadga muvofiq.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti "Urganch davlat universitetini 2017-2030 yillarda rivojlantirish dasturi"ning 2.4 bandiga asosan "Ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish va ilmiy salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan kompleks-chora tadbirlar dasturi" doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. O'zbek xalq o'yinlarining o'quvchilarni ma'naviy tarbiyalashdagi pedagogik mohiyati, tarixiy taraqqiyot xususiyatlari va tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash hamda Xorazm vohasi misolida pedagogik shart-sharoitlar tizimi sifatida asoslab berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o'zbek xalq milliy o'yinlari vositasida o'quvchilarni ma'naviy tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlarini tahlil qilish;

umumta'lim maktablari o'quvchi yoshlarini o'zbek xalq o'yinlari asosida ma'naviy tarbiyalashning pedagogik metodikasini takomillashtirish;

o'zbek xalqining milliy o'yinlari vositasida o'quvchi yoshlarni ma'naviy tarbiyalash mexanizmlari va tizimli-amaliy modelini rivojlantirish;

o'zbek xalq o'yinlari asosida o'quvchi yoshlarni ma'naviy tarbiyalashning pedagogik omillarini takomillashtirish, xalq milliy o'yinlarining ta'sirchanligini oshirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti o'zbek xalq o'yinlari asosida o'quvchilarni ma'naviy tarbiyalashning pedagogik omillarini takomillashtirish jarayoni bo'lib, tajriba-sinov ishlariga Xorazm viloyati 14-29-umumta'lim maktablari, Jizzax viloyati 23-umumta'lim maktablari va Samarqand viloyati 80-umumta'lim maktablarining jami 345 nafar 7-8 sinf o'quvchilari jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini o'zbek xalq o'yinlari asosida o'quvchilarni ma'naviy tarbiyalashning pedagogik omillarini takomillashtirish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida ko'zlangan maqsadga erishish uchun muammoga doir ilmiy manbalar, nazariy (manbalar tahlili, tahliliy-sintetik, qiyosiy-taqqoslash), diagnostik (so'rov va testlarni o'tkazish, kuzatish), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik tajriba-sinov va matematik metodlar (ma'lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash va boshq.) kabi metodlar majmuidan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o'zbek xalq o'yinlari asosida o'quvchilarni ma'naviy tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlari etnografik an'analarni milliy qadriyatlar kategoriyalariga ko'p manbali qiyosiy-taxliliy diagnostikalashning asosiy jihatlari va sabablarini yig'ma komplitsiyalash orqali aniqlashtirilgan;

o'zbek xalq o'yinlari vositasida o'quvchilarni ma'naviy rivojlantirishning pedagogik omillari perseptiv, empatik qobiliyatlarini o'zaro adaptiv muvofiqlashtirish, faol shaxs strategiyasi va milliylik xos fazilatlarini (jamoaviylik, jasorat, qat'iyat va ochiqlik) mujassamlashtiruvchi "oila-maktab-mahalla" hamkorligining identivligi ta'minlash asosida takomillashtirilgan;

o'zbek xalq o'yinlari asosida o'quvchilarni ma'naviy tarbiyalash mexanizmlari jamoaviy faoliyatni modellashtirishni ta'lim jarayoniga integratsiyalash, improvizatsiya kombinatsiyalarida intensiv muloqotlar samaradorligiga erishishni tizimli-amaliy strukturalash asosida takomillashtirilgan;

o'zbek xalq o'yinlarining o'quvchilarni ma'naviy tarbiyalash ta'sirchanligini oshirishga oid taklif va tavsiyalar intensivlik-kognitivlik vositalari orqali o'z-o'zini baholashni takomillashtirish, integrativ-didaktik o'yinlar majmuasining o'qituvchi-o'quvchi faoliyatining o'zaro uyg'unligini tizimli kombinatsiyalash va ijtimoiylashgan faol shaxs strategiyasini ilmiy modernizatsiyalash asosida ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o'zbek xalq o'yinlari asosida o'quvchilarni ma'naviy tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlari tarixiy yozma manbalarni, xalq og'zaki ijodi namunalariga muvofiqligini, xalq o'yinlari qadimiyligi, ijtimoiy ehtiyoj tufayli vujudga kelganligi va xalq madaniyati, turmush tarzi, an'analari bilan chambarchas bog'liqligining asosiy jihatlari va sabablarini refleksiv baholash orqali aniqlashtirilgan;

o'zbek xalq o'yinlari vositasida o'quvchilarni ma'naviy rivojlantirishning pedagogik omillari perspektiv, empatik qobiliyatlarini rivojlantiruvchi ichki va tashqi sinf omillariga o'zaro adaptiv muvofiqlashtirish oqali Xorazm vohasiga xos fazilatlarini

(jamoaviylik, jasorat, qat'iyat va ochiqlik) mujassamlashtiruvchi "oila-maktab-mahalla" hamkorligining identivligini ijtimoiy faol va jamiyatga moslashgan shaxsni shakllantirish asosida takomillashtirilgan;

o'zbek xalq o'yinlari asosida o'quvchilarni ma'naviy tarbiyalash mexanizmlari jamoaviy faoliyatni modellashtirish ta'lim jarayoniga integratsiyalashni improvizatsiya kombinatsiyalarida foydalanishga asoslangan didaktik xarakterdagi intensiv muloqotlar samaradorligiga erishish orqali tizimli-amaliy algoritimlash asosida takomillashtirilgan;

o'zbek xalq o'yinlarining o'quvchilarni ma'naviy tarbiyalash ta'sirchanligini oshirish intensivlik-kognitivlik vositalarini takomillashtirish orqali integrativ-didaktik o'yinlar majmuasining o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining o'zaro uyg'unligini tizimli kombinatsiyaga ta'sir etuvchi ilmiy modernizatsiyalashtirilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligini amalga oshirilgan tadqiqot natijasida pedagogika fani o'quvchilar ma'naviy tarbiyasida o'zbek xalq o'yinlaridan foydalanish samaradorligini rivojlantirishga yo'naltirilgan nazariy yondashuvlar, qarashlar, konseptual asoslar, ilmiy pedagogik tavsiyalar bilan boyitilganligi, turli yondashuv va metodlar, foydalanilgan nazariy va amaliy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, tahlil va tadqiq jarayonida o'zaro bir-birini to'ldiruvchi tadqiqot metodlarining qo'llanilganligi, tajriba-sinov ishlarining tahlili va tadqiqot natijalarining miqdor va sifat jihatidan ta'minlanganligi, xulosa va takliflarning amaliyotga tatbiq qilinganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati fanlararo badiiy adabiyot, folklorshunoslik, arxeologiya, manbashunoslik, tarixiy geografiya va xalq dostonchiligi sohalaridagi yangicha ilmiy yo'nalishlarini yaratish vazifalarini amalga oshirish, xalq o'yinlarini o'rganishda ilmiy nazariy metodologik va amaliy metodik asoslarini boyitishda foydalanishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, dissertatsiyadagi talqin qilingan ma'lumotlardan o'zbek xalq o'yinlari asosida o'quvchilarni ma'naviy tarbiyalashning pedagogik omillarini o'rganish va tayyorlashda, oliy o'quv yurti talabalari yangi avlod adabiyotlarini yaratishda, "Milliy g'oya tarixi va nazariyasi" o'quv qo'llanmani ishlab chiqish hamda vohada xalq o'yinlari sohaning taraqqiyotida mahalliy aholi vakillarining o'rni aks etgan materiallarni eng yangi axborot texnologiyalari asosida (virtual) qayta tiklashda hamda tarixiy – madaniy merosni targ'ib qilishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbek xalq o'yinlari (Xorazm vohasi misolida) asosida o'quvchilarni ma'naviy tarbiyalashning pedagogik omillarini rivojlantirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

o'zbek xalq o'yinlari asosida o'quvchilarni ma'naviy tarbiyalash mexanizmlari (o'yinlarning tarbiyaviy mazmunini aniqlash, xalq o'yinlarini ta'lim jarayoniga integratsiyalash, o'yin natijalarini ma'naviy tahlil qilish, ota-onalar bilan hamkorlik, jamoaviy faoliyatni tashkil qilish, xalq o'yinlarini raqamli vositalar bilan uyg'unlashtirish)ni takomillashtirishga oid xulosa va takliflar "Milliy g'oya,

ma'naviyatning pedagogik asoslari" o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 18-avgustdagi 356 - sonli buyrug'i asosida berilgan 356-063 raqamli nashr guvohnomasi). Natijada o'zbek xalq o'yinlari asosida o'quvchilarni ma'naviy tarbiyalashning pedagogik omillarini aniqlash imkoniyati kengaytirilgan;

o'zbek xalq o'yinlari asosida o'quvchilarni ma'naviy tarbiyalashda modellashtirish va improvizatsiya: kuzatish, eksperiment, mashq, konstruksiya, namuna va taqlidning turli kombinatsiyalarida foydalanishga asoslangan tizimli-amaliy modelini takomillashtirishga oid tavsiyalar "Milliy g'oya tarixi va nazariyasi" o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 7-maydagi 149-sonli buyrug'i asosida berilgan 701782 raqamli nashr guvohnomasi). Natijada o'zbek xalq o'yinlaridan foydalangan holda o'quv jarayonini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlarini rivojlantirishning pedagogik modelini boyitishga erishilgan;

dars va darsdan tashqari pedagogik jarayonlarda intensivlik, kognitivlik, tizimlilik asosida o'zbek xalq o'yinlari vositasida o'quvchilarni ma'naviy tarbiyalashning pedagogik omillarini takomillashtirishga oid takliflardan "Milliy g'oya, ma'naviyatning pedagogik asoslari" o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 18-avgustdagi 356-sonli buyrug'i asosida berilgan 356-063 raqamli nashr guvohnomasi). Natijada dars va darsdan tashqari pedagogik jarayonlarda o'zbek xalq o'yinlaridan foydalangan holda o'quvchilarni ma'naviy tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlarini rivojlantirish texnologiyasining didaktik ta'minotini takomillashtirishga erishilgan;

tajriba-sinov ishlari davomida taklif etilayotgan o'qitish va tarbiyalash metodikasi nafaqat o'quvchilarning ma'naviy tarbiya sohasidagi bilim va ko'nikmalarini shakllantirishga, balki ta'lim va tarbiya jarayonida o'zbek xalq o'yinlaridan foydalanish orqali o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-ma'rifiy va jismoniy salohiyatini rivojlantirishga ham xizmat qilishini aniqlashga oid takliflar "Milliy g'oya tarixi va nazariyasi" o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 7-maydagi 149-sonli buyrug'i asosida berilgan 701782 raqamli nashr guvohnomasi) mavzusidagi xalqaro loyihani bajarishda foydalanilgan. Natijada o'zbek xalq o'yinlaridan samarali foydalanish orqali o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-ma'rifiy va jismoniy salohiyatini rivojlantirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 25 ta ilmiy-uslubiy ish, jumladan, 2 ta o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 13 ta maqola, jumladan, 9 ta respublika va 4 ta xorijiy jurnallarda maqola tarzida nashr ettirilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, asosiy matn 184 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan, ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e‘lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasida ma‘lumotlar hamda dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar tahlili keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“O‘zbek xalq o‘yinlari asosida o‘quvchilarni ma‘naviy tarbiyalashning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida mumtoz manbalar hamda mahalliy va xorij olimlarining tadqiqotlari xulosalari asosida xalq o‘yinlarining mohiyati ochib berilgan, ularning shakllanish tarixi va tarbiyaviy jihatlari tadqiq qilingan. Shuningdek, o‘zbek xalq o‘yinlari vositasida o‘quvchilarni ma‘naviy tarbiyalash zaruriyati asoslanib, o‘zbek xalq o‘yinlari, xususan, Xorazm vohasida keng yoyilgan, voha xalqi dunyoqarashi, urf-odatlarini va qadriyatlarini o‘zida mujassamlantirgan o‘yinlar asosida o‘quvchilarni ma‘naviy tarbiyalashning o‘ziga xos xususiyatlari tavsiflangan.

Bobda, O‘zbek xalq o‘yinlari ham qadimiyligi jihatidan yunonliklar yoki rimliklarning o‘yinlaridan qolishmasligi izohlanadi. O‘zbek xalqining bugungi kunga qadar shakllanib kelgan o‘yinlari, ularning yuzaga kelish tarixi milodgacha bo‘lgan davrlarga, to‘g‘rirog‘i, eng qadimiy ibtidoiy jamoa tuzumi davriga to‘g‘ri keladi. Buni tarixiy, arxeologik, etnografik, folkloristik va boshqa manbalar to‘liq isbotlaydi. Jumladan, Qadimgi rim yozuvchisi Klavdiy Elianning guvohlik berishicha, ajdodlarimiz bo‘lgan saklar qabilasida turli o‘yinlar juda keng tarqalgan va ular xalqning sevimli mashg‘uloti sanalgan. Uning ta‘kidlashicha, saklar qabilasining yigitlari ana shu o‘yinlar musobaqasida o‘zlari yenggan qizlarga uylanish huquqini olganlar³.

Yunon tarixchilari qoldirgan ma‘lumotlarda, bir vaqtlar O‘rta Osiyo hududlarida yashagan qadimgi qabilalar mushtlashishni yaxshi biladigan mohir jangchilar, ya‘ni, harbiy salohiyatga ega bo‘lgan kishilar bo‘lgani alohida ta‘kidlangan⁴. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, qadimda o‘zbek xalq o‘yinlari eng avvalo, ijtimoiy ehtiyoj tufayli vujudga kelgan. Qayd etilganidek, o‘zbek xalq o‘yinlari o‘zining chuqur tarixiy ildizlarga ega bo‘lib, ular xalqimizning madaniyati, turmush tarzi va an‘analari bilan chambarchas bog‘liq. Quyida mazkur o‘yinlar kelib chiqishining ba‘zi asosiy jihatlari va sabablari tahlil qilingan:

1. Dastlabki asosiy jihat, ajdodlarimiz hayotining ko‘chmanchilikka asoslangan turmush tarzining shakllanganligida ko‘zga tashlanadi. Ko‘pgina ko‘chmanchi xalqlar kabi bizning ajdodlarimiz ham ko‘p vaqtlarda ko‘chib yurishgan. O‘yinlar ko‘pincha ularning turmush tarzini aks ettirib, jismoniy kuch, epchillik va omon qolish uchun

³ Элиан Клавдий. Пёстрые рассказы // https://www.royallib.com/read/elian_klavdiy/pestrie_rasskazi.html#0

⁴ Геродот. История в девяти книгах. – Москва: Азбука 2022. – Стр.558-571.

zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam bergan. Aynan ko'chmanchilik asosidagi turmush tarzi xalq o'yinlarining yaratilishi va rivojlanishiga o'zining sezilarli darajadagi ta'sirini ko'rsatgan.

2. Keyingi jihatlardan yana biri, harbiy mahoratni egallash ehtiyojining yuzaga kelishi bilan bog'liqda namoyon bo'ladi. Bir qator o'yinlar kelib chiqishi nuqtai nazaridan harbiy harakatlarga asoslangan yoki jangga tayyorgarlik ko'rish uchun ishlatilgan. Masalan, "Ko'pkari" (Echki go'shtini sudrash), "Otchopar" kabi otlar bilan o'ynaladigan o'yinlar chavandozlik va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirib borgan. Harbiy san'atni puxta egallash zarurati xalq o'yinlarining paydo bo'lishi va rivojlanishiga o'zining sezilarli ta'sirini ko'rsatgan.

3. Xalq o'yinlari kelib chiqishining navbatdagi sababi ularning turli urf-odat va marosimlar bilan bog'liqligida namoyon bo'ladi. Bu sababni avvalo dastlabki madaniy an'analar bilan bog'lash mumkin. Ya'ni, xalq o'yinlari ko'pincha erta bahor tabiat uyg'onganda dehqonlar tomonidan o'tkazilgan turkum bayramlar yoki diniy marosimlardan kelib chiqqan.

4. Xalq o'yinlarining shakllanishi va rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan yana bir omil bu – qadimgi ajdodlarimizda raqobat ruhining yuzaga kelishidir. Ma'lumki, turkiy xalqlar azaldan raqobatni qadrlab kelgan, bu turli o'yinlarda namoyon bo'lgan. Musobaqalar nafaqat o'yin-kulgilarni taqdim etgan, balki, ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashga ham yordam bergan.

5. O'yinlarning xilma-xilligi ham bir necha sabablarga ko'ra xalq o'yinlarining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Turli madaniyatlardan o'zlashtirilgan o'yinlarning turli turlari xalq o'yinlarini yangi elementlar, qoidalar va mexanizmlar bilan boyitgan. Bu turli xalqlarning an'analarini birlashtira oladigan noyob shakllarni yaratishga yordam bergan.

6. Madaniy merosni asrab-avaylash zarurati ham xalq o'yinlarining shakllanishi va rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Ko'pgina o'yinlar bugungi kungacha o'z an'analarini saqlab qolish va keyingi avlodlarga o'tib kelishida muhim rol o'ynaydi. Bu ularning turkiy xalqlar madaniyati takomilidagi ahamiyatidan dalolat beradi.

Bobda, tarbiya jarayonining samaradorligi uning o'quvchi yashayotgan hududning ijtimoiy-madaniy muhiti, tarixiy tajribasi va mentalitetiga mos tashkil etilishiga bevosita bog'liqligi ilmiy jihatdan tahlil etiladi. Shuni aloxida ta'kidlash kerakki, hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda olib boriladigan tarbiya jarayoni o'quvchilar tomonidan tabiiy va hayotiy jarayon sifatida qabul qilinadi. Xususan, Xorazm vohasi sharoitida xalq o'yinlari asosida tashkil etilgan ma'naviy tarbiya o'quvchilar shaxsiga yaqin bo'lgan qadriyatlar va an'analar orqali amalga oshirilgani bois yuqori pedagogik samaradorlikka ega.

Tadqiqotda, hududiy yondashuv tarbiyaviy mazmunning shaxsiy tajriba bilan uyg'unlashuvini ta'minlanishi borasida ham so'z yuritiladi. O'quvchi o'ziga tanish bo'lgan o'yinlar, urf-odatlar va jamoaviy faoliyat shakllari orqali axloqiy me'yorlarni osonroq anglaydi. Bu holat tarbiya jarayonida majburiylikni kamaytirib, o'quvchining ichki ehtiyoji va qiziqishiga tayangan holda ma'naviy fazilatlarining shakllanishiga

xizmat qiladi. Natijada tarbiyaviy ta'sir tashqi nazorat emas, balki shaxsiy ong va ijtimoiy mas'uliyat orqali namoyon bo'ladi.

Tadqiqotning asosiy yangiligi shundaki, o'zbek xalq o'yinlarining ma'naviy tarbiyadagi pedagogik imkoniyatlari faqat umumiy tavsif yoki an'anaviy qarashlar bilan chegaralanmay, balki etnografik an'analar va milliy qadriyatlar tizimi o'rtasidagi ichki aloqadorlikni aniqlash orqali ilmiy asosda ochib berildi. Bu jarayonda etnografik an'analar oddiy urf-odatlar majmui sifatida emas, balki xalqning ma'naviy tajribasini avloddan avlodga uzatib kelgan ijtimoiy-madaniy mexanizm sifatida talqin qilindi. Etnografik an'analar xalq o'yinlarining mazmunida, qoidalarida, o'yin ishtirokchilarining o'zaro munosabatida hamda o'yin jarayonida ifodalangan ramziy harakatlarda o'z aksini topganligi sababli, ularni milliy qadriyatlar kategoriyalari bilan bog'lash tarbiyaviy natijalarni ilmiy aniqlash imkonini berdi. Bobda, zamonaviy tarbiya jarayonida shaxsni ma'naviy-axloqiy jihatdan kamol toptirish faqat umumiy pedagogik yondashuvlar bilan cheklanib qolmasdan, balki muayyan hududning ijtimoiy-madaniy muhiti, tarixiy tajribasi va mental xususiyatlarini hisobga olishni talab etishiga ham urg'u beriladi. Ayniqsa, Xorazm vohasi kabi o'ziga xos urf-odatlar, xalq o'yinlari va jamoaviy hayot tarzi shakllangan hududlarda tarbiyani mahalliy madaniy qadriyatlarga tayangan holda tashkil etish uning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Xalq o'yinlarining pedagogik imkoniyatlarini tadqiq etishda "milliy qadriyatlar kategoriyalari" tushunchasi markaziy metodologik mezon sifatida qo'llanildi. Ya'ni xalq o'yinlari tarkibida mavjud bo'lgan tarbiyaviy mazmun alohida qadriyatlar yo'nalishida guruhlanib, ularning o'quvchi shaxsiga ta'sir mexanizmlari tahlil qilindi. Masalan, jamoaviy o'yinlarda birdamlik, hamkorlik, do'stlik va o'zaro yordam qadriyatlar kuchli namoyon bo'ladi. Raqobatga asoslangan o'yinlarda esa qat'iyat, mardlik, iroda, g'alabaga intilish va adolat tamoyillari shakllanadi. Shu bilan birga, o'yin qoidalariga rioya qilish jarayoni o'quvchilarda intizom, mas'uliyat, halollik va o'zini boshqarish madaniyatini tarbiyalaydi. Bu holat xalq o'yinlarining ma'naviy tarbiyadagi roli faqat tashqi ko'rinishdagi harakat bilan emas, balki ichki axloqiy-ijtimoiy mexanizmlar orqali amalga oshirishini ko'rsatadi.

Tadqiqotda xalq o'yinlarining tarbiyaviy salohiyatini aniqlash uchun ko'p manbali qiyosiy-tahliliy diagnostikalash yondashuvi ishlab chiqildi va qo'llanildi. Ko'p manbali diagnostika deganda xalq o'yinlarini o'rganishda birgina nazariy manba yoki amaliy kuzatuv bilan cheklanmasdan, balki turli tarixiy, etnografik, folklorshunoslik, pedagogik hamda ijtimoiy tajriba manbalarini qiyosiy tahlil qilish tushuniladi. Bunda xalq o'yinlari haqidagi ilmiy adabiyotlar, hududiy vaziyatlar, o'yinlar bilan bog'liq marosimga oid elementlar, xalq og'zaki ijodi namunalari, amaliy pedagogik tajribalar va o'quvchilar faoliyatidagi real tarbiyaviy natijalar birgalikda o'rganildi. Bu esa o'yinlarning tarbiyaviy mazmunini subyektiv fikr asosida emas, balki ilmiy tahlil orqali aniqlash imkonini berdi. Qiyosiy-tahliliy diagnostika jarayonida xalq o'yinlarining turli shakllari va ularning ijtimoiy vazifalari solishtirilib, tarbiyaviy yo'nalishlari bo'yicha tasniflandi. Masalan, ayrim o'yinlar bolalarda muloqot va muomala madaniyatini


shakllantirishga xizmat qilsa, boshqalari jismoniy chiniqish bilan birga psixologik bardoshlilikni ham rivojlantiradi. Ayrim o'yinlarda milliy ramzlar va urf-odatlar kuchli namoyon bo'lib, o'quvchining tarixiy xotirasini uyg'otadi. Boshqa o'yinlarda esa tezkorlik, topqirlik va strategik fikrlash kabi ko'nikmalar rivojlanadi. Shu tariqa xalq o'yinlari bir yoqlama "madaniy meros" sifatida emas, balki o'quvchi shaxsini har tomonlama kamol toptiruvchi pedagogik mexanizm sifatida ilmiy tahlil qilindi.

Tadqiqotning muhim jihati shundaki, xalq o'yinlari orqali ma'naviy tarbiya shakllanishining asosiy jihatlari va sabablarini aniqlashda "yig'ma komplitsiyalash" usuli qo'llanildi. Yig'ma komplitsiyalash deganda turli manbalar asosida olingan ma'lumotlarni jamlash, ularni tizimlashtirish, o'zaro bog'lash va umumiy pedagogik model ko'rinishida integratsiyalash jarayoni tushuniladi. Ya'ni xalq o'yinlari haqida mavjud bo'lgan turli ilmiy va amaliy xulosalar tarqoq holatda emas, balki yagona konseptual tizimda birlashtirildi. Natijada xalq o'yinlarining tarbiyaviy imkoniyatlari bir-biridan ajratilgan fazilatlar sifatida emas, balki o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi ma'naviy tarbiya komponentlari sifatida aniqlashtirildi.

Xorazm vohasiga xos xalq o'yinlari jamoaviylik, jasorat, qat'iyat va ochiqlik kabi fazilatlarni mujassamlashtirgani bilan ajralib turadi. Ushbu fazilatlar hududiy mentalitetning muhim tarkibiy qismi bo'lib, o'yin jarayonida ularning namoyon bo'lishi o'quvchilarda jamiyatga moslashuv, o'z o'rnini anglash va jamoa manfaatini ustuvor qo'yish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu jihatdan xalq o'yinlari hududiy-etnopedagogik tarbiyaning samarali mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbek xalq o'yinlari vositasida o'quvchilarni ma'naviy rivojlantirish jarayoni tadqiqotda pedagogik omillar tizimi asosida takomillashtirildi. Bunda o'quvchilarning perseptiv (idrok va kuzatuvchanlik) hamda empatik (hamdardlik va hissiy sezgirlik) qobiliyatlarini o'zaro adaptiv muvofiqlashtirish orqali ularning ijtimoiy-emotsional rivojlanish mexanizmlari kuchaytirildi. Shu bilan birga, o'quvchi shaxsining faolligini oshiruvchi strategik yondashuv ishlab chiqilib, milliylikka xos fazilatlar -jamoaviylik, jasorat, qat'iyat va ochiqlikni shakllantirish xalq o'yinlari mazmuni bilan integratsiyalandi. Mazkur jarayonning samaradorligi "oila-maktab-mahalla" hamkorligi tizimining identivligini, ya'ni tarbiyaviy maqsad va qadriyatlar birligini ta'minlash orqali mustahkamlandi. Natijada xalq o'yinlariga asoslangan tarbiya modeli o'quvchilarda ma'naviy fazilatlarni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik mexanizmi sifatida ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Tadqiqotda, quyidagi jadval asosida Xorazm vohasi misolida hududiy xususiyatlarni hisobga olgan tarbiyaning mazmuniy jihatlari, uning tarbiyaviy ta'sir mexanizmlari hamda kutilayotgan ma'naviy natijalari tizimli tarzda yoritib beriladi.



1-rasm. Hududiy xususiyatni inobatga olgan tarbiya samaradorligi.
(Xorazm vohasi misolida).

Jadvalda keltirilgan tahliliy yo‘nalishlar Xorazm vohasiga xos hududiy xususiyatlarni tarbiya jarayoniga integratsiya qilishning pedagogik samaradorligini yaqqol namoyon etadi. Unda tarbiya mazmunining ijtimoiy-madaniy muhitga mosligi o‘quvchi shaxsiga tabiiy ta‘sir ko‘rsatishi, tarbiyaviy g‘oyalarning erkin qabul qilinishiga zamin yaratishi bilan izohlanadi. Ayniqsa, xalq o‘yinlari va mahalliy an‘analarga tayangan faoliyat turlari o‘quvchining ichki ehtiyojlari va qiziqishlariga mos kelgani bois, tarbiya jarayonining samaradorligi oshadi.


Dissertatsiyaning “O‘zbek xalq o‘yinlari asosida o‘quvchilarni ma‘naviy tarbiyalashning pedagogik shart-sharoitlari (Xorazm vohasi misolida)” deb nomlangan ikkinchi bobida o‘zbek xalq o‘yinlari asosida o‘quvchilarni ma‘naviy tarbiyalash “O‘yinlarning tarbiyaviy mazmunini aniqlash”, “Xalq o‘yinlarining ta‘lim jarayoniga integratsiyasi”, “Jamoaviy faoliyatni tashkil qilish”, “O‘yin so‘ngida ma‘naviy tahlillarni yo‘lga qo‘yish”, “Ota-onalar bilan hamkorlik”, “Xalq o‘yinlarini raqamli vositalar bilan uyg‘unlashtirish” kabi mexanizmlari aniqlangan. Tadqiqotchi tomonidan o‘zbek xalq o‘yinlari asosida o‘quvchilarni ma‘naviy tarbiyalashning tizimli-amaliy modeli ilgari surilgan, uning o‘ziga xos jihatlari hamda mazkur model asosida o‘zbek xalq o‘yinlari asosida o‘quvchilarni ma‘naviy tarbiyalash texnologiyalari asoslangan.

Mazkur tizimli-amaliy model o‘zbek xalq o‘yinlarining tarbiyaviy imkoniyatlarini ta‘lim jarayoniga izchil va maqsadga yo‘naltirilgan holda joriy etishga xizmat qiladi. Model o‘quvchi shaxsini faqat bilim egalovchi subyekt sifatida emas, balki ma‘naviy, axloqiy va ijtimoiy jihatdan barkamol shaxs sifatida shakllantirishni nazarda tutadi.

Bobda o‘zbek xalq o‘yinlari asosida o‘quvchilarni ma‘naviy tarbiyalash texnologiyalari tarbiyaviy jarayonni maqsadga yo‘naltirilgan, izchil va samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi pedagogik tizim sifatida namoyon bo‘lishi izohlanadi. Ushbu texnologiyalar xalq o‘yinlarining milliy, ijtimoiy va axloqiy mazmuniga tayangan holda o‘quvchi shaxsida ma‘naviy fazilatlarini ongli va barqaror shakllantirishni ko‘zda tutadi. Texnologik yondashuv tarbiyani tasodifiy faoliyatdan chiqarib, rejalashtirilgan, boshqariladigan va baholanadigan jarayonga aylantiradi.

Dissertatsiyada, texnologiyalarning muhim jihatlari va ular o‘yin faoliyatini tarbiyaning markaziy vositasi sifatida qo‘llab, o‘quvchini faol subyekt darajasiga ko‘tarilishi izohlanadi. O‘yin jarayonida o‘quvchilar halollik, adolat, mas‘uliyat, jamoaviylik va o‘zaro hurmat kabi axloqiy me‘yorlarni bevosita tajriba orqali o‘zlashtiradilar. Bu esa ma‘naviy tarbiyaning tashqi nazoratga emas, balki ichki ishonch va e‘tiqodga tayanishini ta‘minlaydi.

Amaliy jihatdan xalq o‘yinlariga asoslangan tarbiyaviy texnologiyalar interfaol shakllar orqali amalga oshiriladi. Kichik guruhlarda o‘yinlar, rolga kirish, vaziyatli topshiriqlar va musobaqaviy faoliyatlar o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirib, ularni turli axloqiy tanlovlar oldida fikr yuritishga undaydi. Bunday texnologiyalar orqali o‘quvchilar real hayotiy vaziyatlarga moslashish, muammolarni birgalikda hal etish va o‘z xatti-harakatlariga baho berish ko‘nikmalarini egallaydilar.



2-rasm. O'zbek xalq o'yinlari asosida o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik model.

Bobda, xalq o'yinlari asosidagi texnologiyalarda reflektiv faoliyat muhim o'rin tutishi izohlanadi. O'yin yakunida o'tkaziladigan muhokamalar, savol-javoblar va tahliliy topshiriqlar o'quvchilarning o'z tajribasini anglashiga, xulosa chiqarishiga va o'zini baholashiga xizmat qiladi. Bu jarayon ma'naviy tarbiyaning ongli va barqaror shakllanishini ta'minlab, shaxsiy rivojlanishni jadallashtiradi.

O'zbek xalq o'yinlari asosida o'quvchilarni ma'naviy tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish masalasi tadqiqotda zamonaviy pedagogik talablar asosida qayta konseptuallashtirildi. Bunda xalq o'yinlari faqat madaniy meros yoki ko'ngilochar faoliyat sifatida emas, balki o'quvchi shaxsida ma'naviy fazilatlarni shakllantiruvchi, ijtimoiy tajribani amaliy faoliyatga aylantiruvchi va jamoaviy ongini rivojlantiruvchi pedagogik texnologiya sifatida talqin qilindi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iborat bo'ldiki, xalq o'yinlari orqali tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish mexanizmlari jamoaviy faoliyatni modellashtirish va uni ta'lim jarayoniga integratsiyalash orqali tizimli ravishda kuchaytirildi.

Mazkur yondashuvda "jamoaviy faoliyatni modellashtirish" deganda o'quvchilarning xalq o'yinlari jarayonida bajaradigan harakatlari, rollari, muloqot shakllari va hamkorlik tamoyillari pedagogik jihatdan oldindan loyihalashtirilgan, boshqariladigan va natijaga yo'naltirilgan tarbiyaviy jarayon sifatida tashkil etilishi nazarda tutiladi. Chunki xalq o'yinlarida o'quvchilar shunchaki ishtirokchi bo'lib qolmaydi, balki ular o'zaro muvofiqlashgan harakatlar, jamoa ichidagi mas'uliyat, qoidalarga bo'ysunish, boshqalarni qo'llab-quvvatlash va umumiy g'alaba uchun harakat qilish tajribasini bevosita amaliy faoliyatda o'zlashtiradi. Shu sababli jamoaviy o'yinlar tarbiyaviy ta'sirni individual tushuntirish orqali emas, balki "birgalikdagi harakat" mexanizmi orqali amalga oshiradi. Tadqiqotda aynan shu mexanizm ilmiy asosda aniqlashtirilib, u ma'naviy tarbiya jarayonining markaziy komponenti sifatida ko'rsatib berildi. Xalq o'yinlarini ta'lim jarayoniga integratsiyalash jarayonida ularning tarbiyaviy mazmuni darsning didaktik maqsadlari bilan uzviy bog'landi. Bunda xalq o'yinlari darsdan tashqari tadbir sifatida emas, balki ta'lim jarayonining tarkibiy qismi sifatida qo'llanib, o'quvchilarni faollashtirish, jamoada ishlash, muloqot madaniyatini shakllantirish hamda milliy qadriyatlarni ongli ravishda qabul qilishga yo'naltirildi. Integratsiyalash jarayonida o'yinlar mazmuni tarbiyaviy maqsadga moslashtirilib, ularning axloqiy me'yorlarni shakllantirishdagi imkoniyatlari amaliy pedagogik vazifalar bilan birlashtirildi. Natijada o'yin jarayonining o'zi tarbiyaviy faoliyatning tabiiy modeli sifatida ishlay boshladi.

Texnologik xarita tarbiya jarayonining mantiqiy ketma-ketligini, pedagogik ta'sirlarning izchilligini hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining o'zaro uyg'unligini ta'minlaydi. Unda xalq o'yinlari vositasida ma'naviy tarbiyani amalga oshirishning har bir bosqichi aniq maqsad, mazmun, metod va kutilayotgan natijalar bilan asoslab beriladi. Bu yondashuv tarbiyaviy faoliyatning samaradorligini oshirish, o'quvchilarda ma'naviy fazilatlarni ongli va barqaror shakllantirishga xizmat qiladi.

Quyida o'zbek xalq o'yinlari asosida o'quvchilarni ma'naviy tarbiyalash jarayonini izchil tashkil etishga yo'naltirilgan bosqichma-bosqich texnologik xarita keltiriladi.

Texnologik xaritani ishlab chiqishning zarurati va konseptual asoslari

Bosqichlar	Bosqich mazmuni	Asosiy pedagogik faoliyat	Qo'llaniladigan metod va usullar	Vositalar	Kutilayotgan ma'naviy natija
1-bosqich. Maqsadni belgilash	Tarbiyaviy jarayonning umumiy yo'nalishini aniqlash	Ma'naviy-axloqiy maqsadlarni tushuntirish, motivatsiya berish	Suhbat, yo'naltiruvchi savollar	Og'zaki tushuntirish, misollar	Tarbiya mazmuniga qiziqish va ichki ehtiyoj shakllanadi
2-bosqich. Diagnostik-tayyorlov	O'quvchilarning boshlang'ich ma'naviy darajasini aniqlash	Kuzatuv, suhbat, dastlabki baholash	Diagnostik savollar, kuzatuv	Baholash varaqalari	O'quvchilarning individual xususiyatlari aniqlanadi
3-bosqich. Mazmunni loyihalash	Xalq o'yinlari asosida tarbiyaviy mazmunni rejalashtirish	O'yinlarni tanlash va moslashtirish	Rejalashtirish, integratsiya	O'yin ssenariylari	Tarbiyaviy mazmun tizimli shakllanadi
4-bosqich. Faoliyatni tashkil etish	O'yin orqali bevosita tarbiyaviy tajriba hosil qilish	Kichik guruhlarda o'yinlar tashkil etish	Faoliyatga yo'naltirilgan, jamoaviy, rolga kirish usullari	Xalq o'yinlari, milliy anjomlar	Halollik, jamoaviylik, mas'uliyat rivojlanadi
5-bosqich. Musobaqaviy va vaziyatli faoliyat	Axloqiy tanlov va ijtimoiy tajribani mustahkamlash	Musobaqalar, keysvaziyatlar	Musobaqaviy, vaziyatli tahlil	Belgilar, ball tizimi	Qat'iyat, iroda, o'zini boshqarish shakllanadi
6-bosqich. Refleksiv-tahliliy	O'yin natijalarini tahlil qilish	Muhokama, xulosa chiqarish	Refleksiya, savol-javob	Tahlil kartalari	O'zini anglash va tanqidiy fikrlash rivojlanadi
